



ORIENTAL FEATURES OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP (SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS)

Malikakhon Ganiyeva

Lecturer

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

E-mail: malika.ganiev85_fsu@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Oriental values, women's entrepreneurship, socio-philosophical analysis, gender equality, economic activity, cultural heritage, development of society.

Received: 25.05.25

Accepted: 27.05.25

Published: 29.05.25

Abstract: This article analyzes the Oriental features of women's entrepreneurship from a socio-philosophical point of view. It has been shown that women in Eastern societies are inextricably linked with the development of economic activity, cultural traditions and values. The study explores ancient Eastern cultural heritage, issues of gender equality, and contemporary economic trends in harmony. As a result of the article, the relevance of harmonizing traditional and modern approaches to the development of women's entrepreneurship is substantiated.

AYOLLAR TADBIRKORLIGINING SHARQONA XUSUSIYATLARI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)

Malikaxon G'aniyeva

o'qituvchi

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

E-mail: malika.ganiev85_fsu@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Sharqona qadriyatlar, ayollar tadbirkorligi, ijtimoiy-falsafiy tahlil, gender tengligi, iqtisodiy faoliyat, madaniy meros, jamiyat taraqqiyoti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ayollar tadbirkorligining Sharqona xususiyatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Sharq jamiyatlarida ayollar iqtisodiy faoliyatining rivojlanishi, madaniy an'ana va qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatilgan. Tadqiqotda qadimgi Sharq madaniy merosi, gender tengligi masalalari va zamonaviy iqtisodiy tendensiyalar o'zaro uyg'unlikda

o'rganilgan. Maqola natijasida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirishning dolzarbligi asoslab berilgan.

ВОСТОЧНЫЕ ЧЕРТЫ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА (СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ)

Малахон Ганиева

Преподаватель

Ферганского государственного университет

Фергана, Узбекистан

E-mail: malika.ganiev85_fsu@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Восточные ценности, женское предпринимательство, социально-философский анализ, гендерное равенство, экономическая деятельность, культурное наследие, развитие общества.	Аннотация: В данной статье проанализированы восточные особенности женского предпринимательства с социально-философской точки зрения. Показано развитие женской хозяйственной деятельности в восточных обществах, ее неразрывная связь с культурными традициями и ценностями. В исследовании гармонично сочетались культурное наследие Древнего Востока, вопросы гендерного равенства и современные экономические тенденции. В результате статьи обоснована актуальность сочетания традиционных и современных подходов в развитии женского предпринимательства.
---	--

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayoni va iqtisodiy modernizatsiya davrida jamiyat hayotining barcha sohalarida ayollarning roli ortib bormoqda. Ayniqsa, Sharq davlatlarida qadimiy madaniy va ijtimoiy an'analar bilan uyg'unlashgan holda ayollar tadbirkorligining rivojlanishi dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar iqtisodiy faolligi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni oshiradi, balki jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy uyg'unlikni ham mustahkamlaydi. Jumladan, A.Minniti va C.Naude ta'kidlaganidek, *"ayollar tadbirkorligi jamiyatda ijtimoiy kapitalni rivojlantiruvchi va iqtisodiy farovonlikni ta'minlovchi muhim omildir"* [1. 281.].

Sharq jamiyatlari o'zining qadimiy an'analari, diniy va madaniy qadriyatlari bilan ajralib turadi. Bu qadriyatlar ayollarning tadbirkorlikdagi faoliyat shakllariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sharqda ayolning ijtimoiy hayotdagi o'rni ko'p hollarda oilaviy qadriyatlar, diniy me'yorlar va an'anaviy jinsiy ro'llar bilan belgilanadi. Shu bois, ayollar tadbirkorligi fenomenini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish, uni milliy va madaniy kontekstda o'rganish alohida ilmiy zaruratga

aylangan. Bu haqda C.Brush va boshqalar quyidagicha izohlaydi: *“Ayollar tadbirkorligi madaniy va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, har bir mintaqada o‘ziga xos rivojlanish dinamikasiga ega”* [2. 506.]. Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarida (5-maqсад: Gender tengligini ta‘minlash) ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish global ustuvor vazifa sifatida belgilangan. BMT hisoboti shunday deydi: *“Ayollarni iqtisodiy hayotga faol jalb qilish ijtimoiy adolat va barqaror iqtisodiy o‘shish uchun zarur shartdir”* [3. 17.].

Sharqona qadriyatlar va zamonaviy iqtisodiy ehtiyojlar o‘rtasida uyg‘unlik yaratish, ayollar tadbirkorligining o‘ziga xos rivojlanish mexanizmlarini aniqlash va takomillashtirish zamon talabidir. Ayniqsa, O‘zbekistonda 2019-2023 yillarga mo‘ljallangan *“Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash davlat dasturi”* doirasida olib borilayotgan islohotlar ham bu mavzuni ilmiy asosda o‘rganishni taqozo etmoqda, jumladan: *“Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”* [4.] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorini keltirishimiz mumkin. Ayollar tadbirkorligining Sharqona xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish, qadimiy qadriyatlar va zamonaviy innovatsion rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirni chuqur anglash, hamda ayollarni iqtisodiy va ijtimoiy faollikda qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqish bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

Ayollar tadbirkorligi masalasi so‘nggi o‘n yilliklarda global va mintaqaviy darajada tadqiqotchilar e‘tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Xalqaro miqiyosida A.Minniti, S.Carter, C.Brush kabi olimlar tomonidan ayollar tadbirkorligining ijtimoiy-iqtisodiy ta‘siri, gender tafovutlari va madaniy muhitdagi o‘ziga xosliklari keng miqyosda o‘rganilgan. Jumladan, A.Minniti *ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda individual motivatsiya va ijtimoiy infratuzilmaning o‘zaro aloqasini* ta‘kidlaydi [5. 281.].

Sharq tafakkuri kontekstida esa ayollar iqtisodiy faoliyatining an‘anaviy qadriyatlar va diniy me‘yorlar bilan bog‘liq xususiyatlari haqida ilmiy tadqiqotlar mavjud, biroq bu sohadagi izlanishlar asosan iqtisodiy yoki sotsiologik yondashuv doirasida olib borilgan. Misol uchun, N.A.Altwajri tomonidan Saudi Arabistonda *ayollar tadbirkorligi diniy va madaniy cheklovlar* doirasida o‘rganilgan bo‘lsa [6. 19.], A.Roomi va J.Parrott esa Pokistonda *ayollar tadbirkorligini oilaviy ijtimoiy struktura bilan bog‘liq* holda tahlil qilganlar [7. 59.].

O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng ayollar faolligini oshirish va tadbirkorlikdagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan tadqiqotlar ko‘paydi. G.G‘ulomova va M.Juraevalar kabi mahalliy tadqiqotchilar *ayollar tadbirkorligi rivojlanish tendensiyalari va davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlov siyosatini* [8. 136.] o‘rganib chiqishgan. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI) ham bu yo'nalishda tahliliy hisobotlar tayyorlamoqda. Biroq, aynan *ayollar tadbirkorligining Sharqona xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan* kompleks tahlil qilgan fundamental ilmiy tadqiqotlar hozircha kam sonli bo'lib qolmoqda. Mavjud ishlarda ko'proq iqtisodiy ko'rsatkichlar, huquqiy va ijtimoiy me'yorlar tahlil qilingan, lekin qadimiy madaniy qadriyatlar va ijtimoiy ongda ayollarga nisbatan shakllangan tarixiy stereotiplarning tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri falsafiy asosda yetarli darajada o'rganilmagan. Shuningdek, zamonaviy inklyuziv iqtisodiyot sharoitida Sharq an'analarining ayollar tadbirkorligiga ijobiy va salbiy ta'sir mexanizmlarini aniqlash, ularning zamonaviy global iqtisodiy tendensiyalar bilan uyg'unlashuvini o'rganish dolzarb bo'lib qolmoqda. Mazkur mavzuimiz ilmiy adabiyotlarda muayyan darajada yoritilgan bo'lsa-da, aynan Sharqona qadriyatlar va ijtimoiy-falsafiy omillar kontekstida tahlil qilish, milliy va mintaqaviy o'ziga xosliklarni aniqlash masalalari hali ham o'z yechimini to'liq topmagan va chuqur ilmiy izlanishlarni talab qilmoqda.

NATIJALAR VA MUNOZARALAR

Ayollar tadbirkorligining rivojlanish omillarini tahlil qilib chiqamiz. Turli mintaqalarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligi rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq, bularga: *iqtisodiy imkoniyatlar, ta'lim darajasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi va madaniy qadriyatlarni* keltirishimiz mumkin. Minniti va Naude singari tadqiqotchilar, *ayollar tadbirkorligini asosan ta'lim va iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyati* bilan izohlaydi hamda quydagicha izohlaydilar: ***"Ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi ayollar tadbirkorligini jadallashishiga turtki beradi"*** [1. 283]. Sharq mamlakatlari misolida esa tadqiqotlar ko'rsatadiki, iqtisodiy rag'batlantirish yetarli bo'lsa-da, *madaniy va diniy cheklovlar hali ham ayollarning iqtisodiy faolligini sezilarli darajada cheklaydi* [6. 20.]. Ayollar ko'pincha an'anaviy oilaviy vazifalar va ijtimoiy me'yorlar ta'sirida iqtisodiy faoliyatni cheklangan doirada olib borishga majbur bo'ladilar.

Sharqona qadriyatlarning ayollar tadbirkorligiga ta'sirini korib chiqamiz. Roomi va Parrott o'z tadqiqotlarida Pokiston misolida Sharqona qadriyatlarning ayollar tadbirkorligi ustiga ikki tomonlama ta'sirini ko'rsatdi: bir tomondan, oilaviy qo'llab-quvvatlash va an'anaviy ishonch kapitali ayollarga kichik biznes yuritishda yordam beradi; ikkinchi tomondan esa, qat'iy gender rollari va ijtimoiy taqiqlar ularning imkoniyatlarini cheklashini [7. 66.] asoslab berganlar. O'zbekistonda ham shunga o'xshash holat kuzatiladi, mahalliy jamiyatlarda ayollar uchun "maqbul" deb hisoblangan tadbirkorlik sohalari (masalan, tikuvchilik, maishiy xizmat ko'rsatish) kengroq qabul qilinadi, biroq innovatsion va texnologik sohalarda faoliyat yurituvchi ayollar soni hali ham nisbatan kam.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda davlat siyosatining rolini ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, davlat tomonidan ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturlari, kreditlar va grantlar orqali iqtisodiy imkoniyatlar kengaytirilmoqda. 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi [4.] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori natijasida ko'plab ayollar o'z bizneslarini boshlash imkoniga ega bo'ldilar.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligi faqat iqtisodiy jarayon emas, balki ijtimoiy ongndagi o'zgarishlarning ifodasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ayollar o'z tadbirkorlik faoliyati orqali nafaqat iqtisodiy mustaqillikni, balki jamiyatdagi ijtimoiy maqomini ham oshirmoqda. Brush tomonidan ta'kidlaganidek: *"Ayollar tadbirkorligi - jamiyatda gender tengligini shakllantiruvchi kuchli mexanizmdir"* [2. 509.].

Sharqona qadriyatlar fonida bu jarayon o'ziga xos: qadimiy madaniy tafakkurda ayolning ijtimoiy roli oilaviy va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan, zamonaviy tadbirkorlik esa ayol shaxsini iqtisodiy mustaqillik va ijtimoiy faollik nuqtayi nazaridan qayta talqin qilmoqda.

Bugungi kunda ushbu muammoning quydagi ijobiy natijalariga to'htalmoqchimiz. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda davlat siyosati, ta'lim imkoniyatlari va iqtisodiy rag'batlar sezilarli darajada ijobiy rol o'ynamoqda. Bundan tashqari muayyan **muammolar ham uchraydi, xususan** madaniy stereotiplar, diniy va an'anaviy cheklovlar hali ham to'liq bartaraf etilmagan. Ayollar tadbirkorligining falsafiy, qadriyatlar asosidagi o'zgarishlar tahlili hali to'liq rivojlanmagan, ayniqsa Sharq kontekstida chuqur tadqiqotlarga ehtiyoj katta.

Biz o'z shaxsiy nuqtai nazarimizdan kelib chiqqan holda, ayollar tadbirkorligining sharqona xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan quyidagicha talqin qilmoqdamiz:

Birinchidan, Sharq jamiyatlarida qadimdan mavjud bo'lgan an'anaviy qadriyatlar - oila, jamiyat oldidagi burch va madaniy stereotiplar - ayollar hayot tarzining, xususan ularning iqtisodiy faolligining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatib kelgan. Shu nuqtayi nazardan, ayollar tadbirkorligini faqat iqtisodiy faoliyat sifatida emas, balki qadriyatlar va modernizatsiya o'rtasidagi murakkab dialog natijasi sifatida ko'rish lozim. Bunda tadbirkor ayol - milliy qadriyatlar doirasida o'z individualligini ifoda etishga harakat qilayotgan zamonaviy subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, biz ayollar tadbirkorligini ijtimoiy ongning o'zgarishi va ijtimoiy erkinlik ko'lamining kengayishi belgisi sifatida talqin qilaman. Ayniqsa, zamonaviy O'zbekiston sharoitida ayollar nafaqat an'anaviy sohalarda (masalan, xizmat ko'rsatish, oziq-ovqat sanoati), balki IT, moliya va innovatsiya kabi zamonaviy sohalarda ham faoliyat ko'rsatmoqda. Bu holat, bizning fikrimizcha, ayollarning ijtimoiy hayotdagi subyektiv rolining kuchayganini va ularning o'z imkoniyatlarini yanada erkin ro'yobga chiqarishga intilayotganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, ayollar tadbirkorligi jarayonida an'anaviy madaniyat va zamonaviylik o'rtasidagi ziddiyatlarni faqat qarama-qarshilik emas, balki sintez nuqtasi sifatida ko'rish tarafdorimiz. Chunki qadriyatlarni to'liq rad etmasdan, balki ularni zamonaviy sharoitlarga moslab qayta talqin qilish ayollar tadbirkorligi rivojining eng maqbul yo'li deb hisoblayman. Bu borada qadriyat va modernizatsiya o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlay olgan jamiyatlar muvaffaqiyatli rivojlanishi ehtimoli yuqoriroq bo'ladi.

To'rtinchidan, biz ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ijtimoiy adolat va gender tengligi tamoyillarini chuqurroq o'rganish va amaliyotga joriy qilish zarur, deb bilaman. Chunki iqtisodiy erkinlik va shaxsiy mustaqillikni faqat madaniy qadriyatlarga tayangan holda emas, balki ijtimoiy teng imkoniyatlarni ta'minlovchi institutsional asoslarda ham mustahkamlash zarur. Yakunda, mening ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazarimga ko'ra, ayollar tadbirkorligi Sharq jamiyatlarining modernizatsiya jarayonidagi eng sezilarli indikatorlaridan biridir. U qadriyatlar va zamonaviy erkinlik o'rtasida barqaror muvozanat topishga qaratilgan o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy harakatdir.

XULOSA

Ayollar tadbirkorligi Sharqda, jumladan O'zbekistonda, o'ziga xos ijtimoiy-madaniy sharoitda shakllanmoqda va rivojlanmoqda. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-falsafiy modernizatsiya va gender tengligini mustahkamlashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Olib brogan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, an'anaviy qadriyatlar va zamonaviylik o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ham imkoniyat, ham muayyan cheklovlar yaratmoqda. Shu sababli, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashda davlat siyosatining iqtisodiy ko'mak bilan bir qatorda madaniy va ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etishga yo'naltirilgan keng qamrovli chora-tadbirlarga asoslanishi zarur. Innovatsion tadbirkorlik sohalarida ayollarning faolligini oshirish, gender sezgir ta'lim va motivatsion dasturlarni kengaytirish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishi va modernizatsiyasi uchun mustahkam poydevor yaratilishi mumkin.

Tadqiqotimiz yakunida ilmiy-nazariy tahlillarimizga tayangan holda, quydagi xulosalarni havola qilmoqdamiz:

1. Ayollar tadbirkorligi – jamiyat modernizatsiyasining ajralmas qismi sifatida ekanligi asoslandi. Ayollar tadbirkorligining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy farovonlik omili, balki jamiyatda ijtimoiy ongning yangilanishi, gender tengligi va shaxsiy erkinlikning mustahkamlanishidir. Bu jarayon, ayniqsa, Sharq jamiyatlarida qadimiy qadriyatlar bilan zamonaviy modernizatsiya o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir natijasida shakllanmoqda.

2. Sharqona qadriyatlar va ayollar tadbirkorligining o'ziga xosligi ochib berildi. Ayollar tadbirkorligi Sharqona qadriyatlar asosida o'ziga xos shakllangan: an'anaviy oilaviy roldan chetga chiqmagan holda, iqtisodiy faoliyatga kirishish shakli ustun. Roomi va Parrott kabi

tadqiqotchilar ko'rsatganidek, bu qadriyatlar bir vaqtning o'zida ham imkoniyat, ham to'siq bo'lib xizmat qilmoqda.

3. Madaniy va ijtimoiy omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy resurslar va davlat dasturlari mavjud bo'lsa-da, madaniy stereotiplar va genderga oid ijtimoiy cheklovlar hali ham ayollar tadbirkorligini to'liq erkin rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda.

4. Davlat siyosatining qo'llab-quvvatlovchi, lekin yetarlicha chuqurlashmagan xususiyati. O'zbekiston va boshqa Sharq davlatlarida ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash siyosiy darajada faol olib borilmoqda. Biroq, ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etish va ayollarning innovatsion tadbirkorlik sohalariga kirishini rag'batlantirishda tizimli ishlarga ehtiyoj bor.

Shuningdek, mazkur amaliy taklif va tavsiyalarni ham ishlab chiqildi:

1. Ayollar uchun ishlab chiqiladigan dasturlar an'anaviy qadriyatlarni inobatga olgan holda, zamonaviy ko'nikmalar va innovatsion texnologiyalarni egallashni ham targ'ib qilishi kerak.

2. An'anaviy qadriyatlarni qadrllovchi, biroq ayollar mustaqilligini ham qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy reklama kampaniyalari va motivatsion loyihalar tashkil etish lozim.

3. Innovatsiya, raqamli texnologiyalar va zamonaviy menejment sohalarida ayollar uchun maxsus qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish zarur. Bu, ularga faqat an'anaviy emas, balki yuqori texnologiyali sohalarida ham faoliyat yuritish imkonini beradi.

4. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda O'zbekiston milliy qadriyatlariga mos keladigan va xalqaro ilg'or tajribalardan foydalangan holda moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish kerak.

5. Mamlakat darajasida ayollar tadbirkorligi rivojlanishi va ularga qarshi madaniy to'siqlarning kamayish dinamikasini doimiy ravishda o'rganib boruvchi monitoring markazlarini tashkil qilish foydali bo'ladi.

6. Sharqona qadriyatlarni inobatga olgan holda, oilaviy tadbirkorlik shakllarini rag'batlantirish, bu orqali ayollarni iqtisodiy jarayonlarga faolroq jalb qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Minniti & W.A.Naudé. What Do We Know About The Patterns and Determinants of Female Entrepreneurship Across Countries? // The European Journal of Development Research, 2010, 22(3), - P. 277-293. // <https://doi.org/10.1057/ejdr.2010.17>

2. C.G.Brush, A. de Bruin & F.Welter. The Influence of National Culture and Institutional Environment on Female Entrepreneurship. Entrepreneurship Theory and Practice, 2009, 33(3), - P 505-522. // <https://doi.org/10.1111/j.1540-6520.2009.00307.x>

3. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. United Nations Publications. 2015. // URL: https://docviewer.yandex.uz/view/0/?page=1&*

4. “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4230944>.
5. A.Minniti. *Female Entrepreneurship and Economic Activity*. // The European Journal of Development Research, 2010, 22(3), - P. 277-293. // URL: <https://doi.org/10.1057/ejdr.2010.176>.
6. N.A.Altwajri. Women Entrepreneurship in Saudi Arabia: Challenges and Empowerment. // International Journal of Business and Social Science, 2017, 8(1), - P. 17-24.
7. M.A.Roomi & G.Parrott. Barriers to Development and Progression of Women Entrepreneurs in Pakistan. // Journal of Entrepreneurship, 2008, 17(1), - P. 59-72. // URL: <https://doi.org/10.1177/0971355707017001058>.
8. G.G‘ulomova & M.Juraeva. O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari. // O‘zbekiston Fanlar akademiyasi axborotlari. 2021. - B.133-140.